

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KENESININ
QARARI**

2023 - yil 25 - yanvar

29-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi "Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasalikka qarshi kurashish tizimini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-14-son qarori haqida

2022-yil 18-mart kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sog'liqni saqlash sohasi vakillari bilan "Tibbiyotdagi islohotlar – inson qadri uchun" mavzusidagi ochiq muloqoti doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, shuningdek, OIV infeksiyasini profilaktika qilish, unga tashxis qo'yish va davolash sifatini yanada oshirish, aholi orasida OIV infeksiyasini aniqlash bo'yicha tekshiruvlar qamrovini oshirish, bemorlarga sifatli tibbiy va ruhiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish, ularni zarur dori vositalari bilan to'liq ta'minlash hamda ijtimoiy himoyasini kuchaytirish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi "Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasalikka qarshi kurashish tizimini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-14-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi **qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi "Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasalikka qarshi kurashish tizimini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-14-son qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

1) **Aholi orasida OIV infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga doir 2023-2027-yillarga mo'ljallangan kompleks chora-tadbirlar dasturi** (keyingi o'rinlarda – Dastur) ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

2) Sog'liqni saqlash vazirligi (A.Inoyatov)ga:

a) 2027-yilda:

OIV infeksiyasini yuqtirib olgan hamda o'z maqomini bilgan, maxsus davolash kurslari bilan qamrab olingan va qonida virus yuklamasi aniqlanmaydigan darajaga tushgan shaxslar ko'rsatkichi 95 foizga etkazilishini;

OIV infeksiyasining onadan bolaga yuqishiga barham berilishini ta'minlash;

b) nikohlanuvchi shaxslarni OIV infeksiyasi bo'yicha majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazish jarayonini elektron tizim orqali amalga oshirishni yo'lga qo'yish maqsadida Adliya vazirligi bilan birgalikda 2023-yil 1-iyunga qadar Toshkent shahri va Sirdaryo viloyatida, 2023 yil yakuniga qadar esa boshqa hududlarda "Elektron hukumat" tizimining idoralararo integratsiya platformasi orqali FHDYO organlari va tegishli tibbiyot muassasalari o'rtasida elektron hamkorlikni tashkil qilish;

v) 2023-yil yakuniga qadar OIV infeksiyasi aniqlangan holatlar monitoringini ta'minlash, real vaqt rejimida preparatlar va diagnostikumlarning harakatlanishini kuzatib borish imkonini beruvchi elektron axborot tizimini yaratish hamda ushbu tizimni Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasining elektron bazalari bilan integratsiya qilish orqali o'zaro axborot almashinuvini yo'lga qo'yish;

g) ikki oy muddatda Ichki ishlar vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, YOshlar siyosati va sport vazirligi, Din ishlari bo'yicha qo'mita, manfaatdor vazirlik va idoralar hamda jamoat tashkilotlari bilan birgalikda OIV infeksiyasiga chalingan shaxslarni ijtimoiy, huquqiy, ma'naviy va tibbiy-psixologik qo'llab-quvvatlash, ayniqsa, yoshlar orasida OIV infeksiyasi tarqalishi masalalarida keng tushuntirish va tarbiyaviy ishlar olib borish, jamiyatda oilaviy va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashga doir idoralararo chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash topshirilganligi;

3) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, Toshkent shahri va viloyatlar hokimlariga Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda hududlar kesimida 2023-yilga mo'ljallangan OIVga qarshi kurashish tizimini kuchaytirishga doir "yo'l xaritalari"ning amalga oshirilishini, 2024-2026-yillarda tegishli davrga mo'ljallangan "yo'l xaritalari"ning ishlab chiqilishini ta'minlash topshirilganligi;

4) Vazirlar Mahkamasiga har yarim yilda Dasturda belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish holatini tanqidiy muhokama qilish hamda o'z vaqtida va to'liq bajarilmagan tadbirlar yuzasidan mas'ul vazirlik va idoralar rahbarlariga nisbatan tegishli choralarni ko'rish topshirilganligi;

5) Iqtisodiyot va moliya vazirligiga har yili O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti parametrlarini shakllantirishda Dasturning amalga oshirilishi uchun zarur

mablagʻlarni nazarda tutish topshirilganligi;

6) Sogʻliqni saqlash vazirligiga Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Oʻzbekiston Milliy axborot agentligi, Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi bilan birgalikda Dasturda belgilangan OIV infeksiyasiga doir dolzarb masalalar boʻyicha maqolalar, telekoʻrsatuvlar va radioeshittirishlar orqali aholi orasida OIV infeksiyasiga qarshi kurashishning ahamiyati muntazam va keng yoritilishini taʼminlash topshirilganligi;

7) Sogʻliqni saqlash vazirligiga manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan oʻzgartirish va qoʻshimchalar toʻgʻrisida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish topshirilganligi;

8) Qaror ijrosini samarali tashkil qilishga masʼul va shaxsiy javobgar etib sogʻliqni saqlash vaziri A.SH.Inoyatov hamda Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari belgilanganligi maʼlumot uchun qabul qilisnin.

3. Aholi orasida OIV infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga doir 2023-2027-yillarga moʻljallangan kompleks chora-tadbirlar dasturi (keyingi oʻrinlarda – Dastur) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Nukus shahar va tumanlar hokimliklari Sogʻliqni saqlash vazirligi bilan birgalikda 2023-yilga moʻljallangan OIVga qarshi kurashish tizimini kuchaytirishga doir “yoʻl xaritalari”ning amalga oshirilishini, 2024-2026-yillarda tegishli davrga moʻljallangan “yoʻl xaritalari”ning ishlab chiqilishini taʼminlasin.

5. Sogʻliqni saqlash vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi, Qoraqalpogʻiston axborot agentligi, Qoraqalpogʻiston teleradiokompaniyasi bilan birgalikda Dasturda belgilangan OIV infeksiyasiga doir dolzarb masalalar boʻyicha maqolalar, telekoʻrsatuvlar va radioeshittirishlar orqali aholi orasida OIV infeksiyasiga qarshi kurashishning ahamiyati muntazam va keng yoritilishini taʼminlasin.

6. Qaror ijrosini samarali tashkil qilishga masʼul va shaxsiy javobgar etib sogʻliqni saqlash vaziri M.Qurbanov hamda Nukus shahar va tumanlar hokimlari belgilansin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining oʻrinbosari A.Daniyarov zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog'iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F.Ermanov

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar
Kengashining
2023 yil 25 yanvardagi
29-13-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

**Aholi orasida OIV infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga doir 2023-2027 yillarga mo'ljallangan kompleks
chora-tadbirlar dasturi**

T/r	CHora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish muddati	Talab etiladigan mablag' va moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
1.	Birlashgan Millatlar Tashkilotining OIV infeksiyasi epidemiyasiga barham berishni ko'zda tutuvchi "95-95-95" strategiyasi doirasida OIV infeksiyasini yuqtirib olgan shaxslarning 95 foizi o'z maqomini bilishiga erishish maqsadida davolash- profilaktika muassasalarida klinik ko'rsatmalar asosida bemorlarni OIVga ixtiyoriy tekshiruvlar bilan qamrab olish hamda aholi o'rtasida OIV infeksiyasini erta aniqlash va profilaktik tadbirlar olib borish.	<p>1. Aholini OIV infeksiyasini aniqlash bo'yicha tekshiruvlar bilan keng qamrab olish uchun har yili kamida 7 ming nafar odam o'rtasida ekspress testlar o'tkazish.</p> <p>2. Test to'plamlariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash, buyurtma tayyorlash va ularni xarid qilish.</p> <p>3. Aholi orasida OIV infeksiyasi bo'yicha tibbiy maslahatlar berish, axborot-targ'ibot materiallarini tayyorlash va aholiga etkazish, targ'ibot ishlarini olib borish. OIV infeksiyasi bilan bog'liq stigmatizatsiya va diskriminatsiyaning oldini olish bo'yicha maxsus tadbirlar (treninglar, kampaniyalar va boshqalar) o'tkazish.</p> <p>4. Davolash-profilaktika muassasalari mutaxassislari uchun OIV infeksiyasi masalalariga doir o'quv dasturlarini ishlab chiqish hamda trenerlarni tayyorlash.</p> <p>5. OIV infeksiyasini aniqlash maqsadida o'z-o'zini testdan o'tkazish bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish va ijobiy tajribani amaliyotga joriy etishga doir taklif ishlab chiqish.</p> <p>6. Turli guruhlar uchun maqsadli va moslashtirilgan o'z-o'zini testdan o'tkazish axborot kampaniyalarini ishlab chiqish va o'tkazish.</p>	2023-yil 2024-yil 2025-yil 2026-yil 2027-yil	Respublika byudjeti mablag'lari Mahalliy byudjet mablag'lari Xalqaro tashkilotlar grantlari	Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Moliya vazirligi, Nukus shahar va tumanlar hokimliklari, nodavlat notijorat tashkilotlari, hamkor tashkilotlar

T/r	CHora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish muddati	Talab etiladigan mablag' va moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
2.	OIV infeksiyasi yuqishi va tarqalishi ehtimoli yuqori bo'lgan guruhardan aholiga OIV infeksiyasining tarqalish zanjirini uzish maqsadida ushbu guruhlar orasida OIV infeksiyasini faol aniqlash va profilaktik tadbirlar olib borish bo'yicha ishlarni tashkil etish.	1. Sog'liqni saqlash vazirligi va nodavlat notijorat tashkilotlar bilan tuzilgan o'zaro hamkorlik to'g'risidagi maqsadli bitim va kelishuvlarda OIV infeksiyasi yuqishi va tarqalish ehtimoli yuqori bo'lgan rpyhlap orasida OIV infeksiyasini aniqlash bo'yicha tadbirlarni belgilash va reja asosida olib borish. 2. OIV infeksiyasi tarqalishining oldini olishga doir tadbirlarni amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlarning ishtirokini kengaytirish, shu jumladan o'quv mashg'ulotlarni tashkil etish.	2023-yil 2024-yil 2025-yil 2026-yil 2027-yil	OITS, sil va bezgakka qarshi kurashish bo'yicha Global jamg'arma mablag'lari	Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Nukus shahar va tumanlar hokimliklari, nodavlat notijorat tashkilotlari, hamkor tashkilotlar
3.	OIV infeksiyasiga chalingan bemorlar orasida virusli, bakterial va zamburug' etiologiyali yondosh kasalliklar kelib chiqishining oldini olish va davolash maqsadida ularni zarur dori vositalari bilan uzluksiz ta'minlash.	1. Yondosh kasalliklari mavjud OIV infeksiyali shaxslarni aniqlash. 2. Davolash bayonnomalariga muvofiq zarur dori vositalari miqdorini hisoblash va ularni xarid qilish.	2023-yil 2024-yil 2025-yil 2026-yil 2027-yil	Mahalliy byudjet mablag'lari Respublika OITSGa qarshi kurash markaziga ajratilgan byudjet mablag'lari	Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Nukus shahar va tumanlar hokimliklari

T/r	CHora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish muddati	Talab etiladigan mablag' va moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
4.	Jinsiy yo‘l bilan yuqadigan infeksiyalar bilan zararlanish xavfi yuqori bo‘lgan shaxslar o‘rtasida “Do‘stona xonalar” orqali jinsiy aloqa yo‘li bilan yuquvchi kasalliklarni sindromal davolash va profilaktik tadbirlarni olib borish maqsadida ularni dori vositalari, tibbiy buyumlar va profilaktik vositalar bilan uzluksiz ta'minlash.	1. Dori vositalari, tibbiy buyumlar va profilaktik vositalarga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash, moliyalashtirish uchun buyurtmalarni tayyorlash va ehtiyojdan kelib chiqib, ularni xarid qilish va etkazish. 2. “Dustona xonalar” orqali jinsiy yo‘l bilan yuqadigan infeksiyalar bilan zararlanish xavfi yuqori bo‘lgan shaxslarni sindromal davolash bilan qamrab olish hamda ular orasida tyshyntipish-tapg‘ibot ishlarini olib borish.	2023-yil 2024-yil 2025-yil 2026-yil 2027-yil	Mahalliy byudjet mablag‘lari Respublika OITSGa qarshi kurash markaziga ajratilgan byudjet mablag‘lari	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, Nukus shahar va tumanlar hokimliklari

T/r	CHora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish muddati	Talab etiladigan mablag' va moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
5.	Aholi o'rtasida OIV infeksiyasi profilaktikasi masalalari bo'yicha keng ko'lamli axborot-tushuntirish ishlarini tashkil etish.	<p>1. OIV infeksiyasi profilaktikasi masalalari bo'yicha 2023 yilga mo'ljallangan media-rejani ishlab chiqish. Kelgusida tegishli yil uchun media-reja ishlab chiqilishini ta'minlash.</p> <p>2. Ommaviy axborot vositalari, Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali aholi orasida OIV infeksiyasi profilaktikasi, diagnostikasi va davolashga doir masalalar bo'yicha keng ko'lamli targ'ibot ishlarini olib borish, maqolalar, teleko'rsatuvlar, radioeshittirishlar, audiovizual targ'ibot materiallarini tayyorlash.</p> <p>3. Avtobus, supermarket, bozorlarda OIV infeksiyasi bo'yicha aholi xabardorligini oshirishga qaratilgan roliklar va radiomaslahatlarni taqdim etish.</p>	<p>2023-yil 15-fevral</p> <p>2023-2027-yillar (har yili 1-fevralga qadar) 2023-2027-yillar</p>	Davlat byudjetidan ajratilgan mablag'lar, Xalqaro tashkilotlar grantlari, ijrochilar mablag'lari	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi, Axborot agentligi, Qoraqalpog'iston teleradiokompaniyasi, transport vazirligi, Nukus shahar va tumanlar hokimliklari
6.	Qo'ng'iroq tumanlararo diagnostika laboratoriyasini qurish, Beruniy tumanlararo diagnostika laboratoriyasini ta'mirlash.	<p>1. Loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash va tasdiqlash.</p> <p>2. Qurilish va ta'mirlash ishlarini olib borish.</p> <p>3. Aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini oshirish.</p>	2024-2025-yillar	Investitsiya dasturi asosida 2042,1 mln so'm	Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Moliya vazirligi, Nukus shahar va tumanlar hokimliklari